Adabiy-badiiy jihatdan yondashish esa, nutqiy ta'sirchanlik vositalarini tahlil qilish dostonlarning obraz yaratish imkoniyatlarini, badiiy kuchi va estetik ta'sirini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xorazm dostonlarida nutqiy vositalar faqat badiiy bezak emas, balki ta'sirchanlik kuchga ega kommunikativ vositadir. Ular tinglovchining his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi, uni ruhlantiradi, ogohlantiradi, hamdardlik yoki nafrat uyg'otadi. Dialog va monologlar orqali qahramonlarning ruhiy holati va maqsadlari ochiladi, idioma va paremalar esa ta'sirchanlikni kuchaytiradi [5;12-b.]. Shunday qilib, dostonlarda nutqiy vositalarning ta'sirchanlik funksiyasini o'rganish xalqning nutqiy madaniyatini, ijtimoiy ongini va kommunikativ tajribasini chuqur anglash uchun muhim ilmiy vazifadir. Xalq dostonlari asrlar davomida o'zbek og'zaki ijodining yirik janri sifatida shakllangan bo'lib, ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki xalqning ijtimoiy ongini, ma'naviy qadriyatlarini, kommunikativ tajribasini ham saqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, doston tilini faqat poetik tahlil doirasida o'rganish yetarli emas. Chunki unda mavjud bo'lgan nutqiy birliklar – murojaat, duo, qarg'ish, buyruq, maqol, matal va idiomalar tinglovchi bilan bevosita aloqaga kirishib, kommunikativ qimmat kasb etadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion). Xalq dostonlari asrlar davomida o'zbek og'zaki ijodining yirik janri sifatida shakllangan bo'lib, ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki xalqning ijtimoiy ongini, ma'naviy qadriyatlarini, kommunikativ tajribasini ham saqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, doston tilini faqat poetik tahlil doirasida o'rganish yetarli emas. Chunki unda mavjud bo'lgan nutqiy birliklar – murojaat, duo, qarg'ish, buyruq, maqol, matal va idiomalar tinglovchi bilan bevosita aloqaga kirishib, kommunikativ qimmat kasb etadi. Pragmatik tahlil doston tilini qahramonlarning ruhiy holati, niyati va ijtimoiy maqomi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib, undagi har bir nutqiy birlikning tinglovchi yoki voqea rivojiga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganadi.

Pragmatik tahlilda doston tilining nafaqat poetik, balki kommunikativ qimmatini ham ochib beradi. Qahramonlarning nutqiy vaziyatlari, dialog va monologlari, maqol-matal va idiomalari faqat estetik go'zallik uchun emas, balki tinglovchiga ta'sir o'tkazish, uni ruhlantirish, ogohlantirish va ma'lum maqsadga yetaklash uchun xizmat qiladi. Shunday qilib, dostonlar pragmatik jihatdan ikki tomonlama qimmatga ega – poetik qiymat – obrazlilik, badiiylik va estetik zavqni anglatsa, kommunikativ qiymat – ijtimoiy ongni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va tinglovchiga bevosita ta'sir qilishga xizmat qiladi [6;92-b.].

Demak, dostonlarni pragmatik tahlil qilish xalqning tarixiy muloqot tajribasi va nutqiy madaniyatini ilmiy asosda yoritish uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. ДДА, Т., 2000, 44-бет.

(2). Кунтуғмиш достони. Халқ оғзаки ижоди. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975, 250-бет.

(3). Баженова И.С. Эмоции, прагматика, текст. М., издательство "Менеджер", 2003, с. 56.

(4). Yaqubova Y.A. O'zbek tilida nutqiy ta'sir aktlarining ifodalanishi. Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis., Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2026, 140-bet.

(5). Safarov Shahriyor. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.

(6). Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. Toshkent, 2020, 168-bet.

Boltaeva Dilfuzaxon Shuxrat qizi (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti "Ingliz tili nazariy aspektlari 1" kafedrasi katta o'qituvchisi; e-mail: dilfuzaboltayeva92@gmail.com)

NOVELLANING DAVRIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI: FOLKLORIDAN KLASSIKAGACHA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada novella janrining folklor manbalaridan klassik adabiyotgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodi, xususan, afsona, rivoyat, ertak va latifalarning novellaning shakllanishi hamda mustaqil janr sifatida qaror topishidagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, qiyosiy-adabiy va narratologik metodlar qo'llanildi. Natijada novellaning evolyutsiyasi uch bosqichli model (folklor, yozma-adabiy va klassik rivojlanish bosqichlari) asosida tizimlashtirildi, "eshitilmagan voqea" tamoyili va "novellistik burilish"ning kompozitsion ahamiyati ochib berildi. Tadqiqot janr nazariyasini boyitadi va adabiyot nazariyasi kurslarida qo'llanishi mumkin. Shuningdek, Y.M.Meletinskiy nazariyasi asosida novella tipologiyasining yangi talqini taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *novella, janr evolyutsiyasi, folklor, xalq og'zaki ijodi, hikoyachilik an'analari, Uyg'onish davri, klassik realizm, narratologiya, qisqa nasr, adabiyotshunoslik.*

ПЕРИОДИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ НОВЕЛЛЫ: ОТ ФОЛЬКЛОРА ДО КЛАССИКИ

Аннотация. *В статье рассматривается историческое развитие жанра новеллы от фольклорных истоков до классической литературы. Освещается роль устного народного творчества мифов, сказаний, сказок и анекдотов в формировании новеллы как самостоятельного жанра. Использованы историко-типологический, сравнительно-литературный и нарратологический методы. Эволюция новеллы представлена в виде трёхэтапной модели: фольклорный, письменно-литературный и классический этапы. Раскрыты принцип «неслыханного события» и композиционная роль «новеллистического поворота». Научная значимость работы заключается в развитии теории жанра, практическая в возможности использования результатов в курсах теории литературы. Предложена новая интерпретация типологии новеллы на основе теории Е.М.Мелетинского.*

Ключевые слова: *новелла, эволюция жанра, фольклор, устное народное творчество, повествовательные традиции, эпоха Возрождения, классический реализм, нарратология, короткая проза, литературоведение.*

PERIODIC STAGES OF NOVELLA DEVELOPMENT: FROM FOLKLORE TO CLASSICS

Annotation. *This article examines the historical development of the novella from its folklore origins to its classical literary form. It highlights the role of oral folk traditions, including myths, legends, fairy tales, and anecdotes, in shaping the novella as an independent genre. The study employs historical-typological, comparative-literary, and narratological methods. The evolution of the novella is systematized into a three-stage model: folklore, written-literary, and classical development stages. The study reveals the formation of the "unheard-of event" principle and the compositional significance of the "novella twist." Its scientific value lies in enriching genre theory, while its practical relevance is connected with literary theory courses. A new interpretation of novella typology based on E.M.Meletinsky's theory is proposed.*

Key words: *novella, genre evolution, folklore, oral folk art, narrative traditions, Renaissance, classical realism, narratology, short prose, literary studies.*

Kirish. Novella jahon adabiyotidagi qadimiy epik janrlardan biri bo‘lib, uning shakllanishi xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liqdir. Afsona, rivoyat, ertak va latifalar novellaning syujet ixchamligi, dinamik rivoji va kutilmagan yakun kabi xususiyatlarining shakllanishiga asos bo‘lgan [1]. Janr nomi italyancha “novella” (“yangilik”, “yangi xabar”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, uning asosiy vazifasi yangi va ilgari eshitilmagan voqeani hikoya qilishdan iborat.

I.V.Gyote novellani “sodir bo‘lgan g‘ayrioddiy voqea haqidagi hikoya” deb ta’riflaydi va janr markazida favqulodda hodisa turishini ta’kidlaydi [2]. A.Shlegel va L.Tike esa “burilish nuqtasi” (Wendepunkt) tushunchasi orqali novellaning dramatik keskinligini izohlaydilar [3].

P.Heysening “lochin nazariyasi”ga ko‘ra, novelladagi barcha voqealar bitta markaziy motiv yoki konflikt atrofida jamlanadi [4]. Bu xususiyat asarning kompozitsion yaxlitligi va badiiy ta’sirchanligini ta’minlaydi.

M.Baxtin adabiy janrlarni tarixiy rivojlanishda o‘zgarib boruvchi hodisa sifatida baholab, ularning ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanishini ko‘rsatadi [5]. Uning fikricha, novellada turli nuqtai nazarlar va “ovozlar”ning to‘qnashuvi muhim o‘rin tutadi.

V.Shklovskiy novellaning asosiy belgisi sifatida syujetning markazlashganligi va voqealar rivojining keskinligini ko‘rsatadi [6]. Rus formalistlari vakili sifatida u novellani syujet qurilmasining eng ixcham va ta’sirchan shakli deb baholab, “qotirilgan sujet” va “kutilmagan yechim” o‘rtasidagi ziddiyat uning dinamikasini belgilashini ta’kidlaydi. Sujet zichligi novellaning muhim janriy belgilaridan biridir.

Tadqiqotchilar novellaning mustaqil janr sifatida shakllanishini XIV asr Italiya Uyg‘onish davri bilan bog‘laydilar. J.Bokkachchoning “Dekameron” asari folklor an’analarini yozma adabiyot bilan uyg‘unlashtirib, novella taraqqiyotida muhim bosqichni boshlab bergan [7]. Asardagi 100 novella sujet xilma-xilligi va ramka kompozitsiyasi bilan janr rivojida alohida o‘rin tutadi.

So‘nggi tadqiqotlarda novellaning genezisi va evolutsiyasi keng o‘rganilmoqda. T.Hasanzade janrning folklordan klassik realizmgacha bo‘lgan taraqqiyotini tahlil qilgan [8], O.Melnyk va hammualliflar esa uning zamonaviy transformatsiyalarini yoritganlar [9]. A.J.Greimas va T.Todorov novellaning narativ tuzilishini o‘rgangan bo‘lsalar [10;11-b.], H.Himmel, B.fon Vize va E.Lemmert novella nazariyasini rivojlantirib, uni dramaga eng yaqin epik janr sifatida tavsiflaganlar [12; 13; 14].

Shu bois mazkur maqolada novellaning folklordan klassik adabiyotgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi janrning shakllanish jarayoni, ertak va anekdot bilan genetik aloqasi hamda “novellistik burilish”ning poetik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ilmiy yangilik sifatida Y.M.Meletinskiy nazariyasi asosida novella tipologiyasining yangi talqini taklif etiladi.

Adabiyotlarning tahlili. Novella nazariyasi bo‘yicha eng muhim tadqiqotlar nemis adabiyotshunosligiga mansubdir. Gyote novellani “mislsiz voqea” (eine sich ereignete unerhörte Begebenheit) deb ta’riflab, janr markazida g‘ayrioddiy hodisa turishini ta’kidlagan [2]. A.Shlegel va L.Tike ham novellaning asosini ajoyib va hayratlanarli voqea tashkil etishini qayd etadilar. Tike tomonidan ilgari surilgan “burilish nuqtasi” (Wendepunkt) tushunchasi, keyinchalik, novella poetikasining muhim nazariy kategoriyasiga aylangan [3].

P.Heyse “lochin nazariyasi” (Falkentheorie) orqali novellada markaziy ramz yoki motivning ahamiyatini asoslab bergan [4]. Uning fikricha, asardagi barcha voqealar bitta markaziy obraz yoki detal atrofida jamlanadi. Bu nazariya, keyinchalik, F.Lockerman va G.Pongs tomonidan rivojlantirilgan [15;16]. H.Himmel va B.fon Vize esa nemis novellasi taraqqiyoti hamda ramziy burilish nuqtasining badiiy vazifalarini tahlil qilganlar [12;13].

Y.M.Meletinskiy novella janrining kelib chiqishi va evolyutsiyasini folklor, Sharq va G‘arb adabiyoti materiallari asosida keng o‘rgangan [17]. Olim novellaning asosiy folklor manbalari sifatida novellistik ertak va anekdotni ko‘rsatadi. Novellistik ertakda qahramon o‘z maqsadiga sehrli kuchlar emas, balki aql-zakovati va topqirligi orqali erishadi. Anekdot esa paradoksal vaziyat, keskin ziddiyat va kutilmagan yakun bilan ajralib turadi [17]. Meletinskiy ushbu ikki shakl klassik novella poetikasining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaganini ta’kidlaydi.

Rus adabiyotshunosligida A.Reformatskiy, M.Petrovskiy, B.Eyxenbaum, V.Shklovskiy, L. Vigotskiy va V.Vinogradov novella nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar [6; 18; 19; 20]. Ular syujet qurilishi, konflikt rivoji va kutilmagan yechim masalalarini tadqiq qilganlar. Ayniqsa, Shklovskiy “ostraneniye” nazariyasi orqali oddiy voqeaning badiiy ta’sir kuchiga ega syujetga aylanish mexanizmini izohlab bergan [6].

Anglo-amerikan adabiyotshunosligida novella, ko‘pincha, qisqa hikoya janri bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. E.Po “bir nafasda o‘qib tugatish mumkin bo‘lgan hikoya” tamoyilini ilgari surgan [21]. G.James, I Watt, S.O‘Folaain va F.O‘Connor esa novellaning roman va hikoyadan farqlanuvchi xususiyatlarini tahlil qilganlar [22; 23].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati Yevropa novellasiga bag‘ishlangan. Sharq va G‘arb novella modellari o‘rtasidagi tipologik farqlar hamda psixologik novella poetikasi esa nisbatan kam o‘rganilgan. Ushbu maqolada aynan shu masalalar Meletinskiyning nazariy qarashlari [17] va Boltaevaning Amerika psixologik novellasi bo‘yicha tadqiqotlari asosida yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, qiyosiy-adabiy, narratologik va struktural metodlardan foydalanildi. Tarixiy-tipologik metod novellaning folklordan klassik adabiyotgacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlarini aniqlashga xizmat qildi [1]. Qiyosiy-adabiy metod Sharq va G‘arb novella an’analarining o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish imkonini berdi [17; 22; 23]. Narratologik metod yordamida syujet markazlashuvi, konflikt rivoji va “novellistik burilish”ning poetik vazifalari o‘rganildi [5; 10; 11]. Struktural metod esa V.Propp va A.J.Greymas nazariyalari asosida novella sujetining tarkibiy tuzilishini tahlil qilishda qo‘llanildi.

2020–2025-yillarda chop etilgan ilmiy manbalar tahlili asosida novellaning folklor, yozma-adabiy va klassik rivojlanish bosqichlari tizimlashtirildi hamda ular o‘rtasidagi tarixiy va poetik bog‘liqlik aniqlandi [8; 9].

Tahlil va natijalar. Meletinskiyning qayd etishicha, sehrli ertakda ritual sinovlar (predvaritelnoye ispitaniye va osnovnoye ispitaniye) o‘rtasidagi qat’iy farq novellistik ertakda yo‘qoladi. Sehrli ertakda qahramon avval sehrli yordamchini topib, keyin asosiy sinovlarni yengadi. Novellistik ertakda esa sehrli yordamchi o‘rnini qahramonning aql-zakovati egallaydi. Natijada ertakning kompozitsion zanjiri parchalanib, “qiyin topshiriqlar” va “yaxshi maslahatlar” mustaqil syujetlarga aylanadi [17;11–13-b.]. Anekdot esa o‘zining paradoksal yakuni (“pointe”) bilan klassik novellaning kompozitsion asosini yaratgan.

Meletinskiy folklor prednovellasining ikki asosiy shakli – novellistik ertak va anekdot – o‘zaro to‘ldiruvchi munosabatda ekanligini ta’kidlaydi. Novellistik ertakda donolik va aql-idrok, anekdotda esa ayyorlik va lo‘ttilik ustunlik qiladi. Bu ikki modelning uyg‘unlashuvi klassik novella poetikasining shakllanishiga zamin yaratgan [17;18–19-b.].

Novella janrining klassik shakli Italiya Uyg‘onish davrida, ayniqsa J.Bokkachchoning “Dekameron” (1353) asarida shakllangan. Asarda qahramon faolligi, “eshitilmagan voqea” atrofida syujetning jamlanishi, kutilmagan “novellistik burilish” hamda gumanistik ruh yaqqol namoyon bo‘ladi [7;17,75–77-b.]. Ramkali kompozitsiya – vabo davrida Florensiyadan chiqib ketgan 10 kishining 100 novella hikoya qilishi – sujetlarni birlashtirish va turli nuqtayi nazarlarni ifodalash imkonini bergan.

Meletinskiy "Dekameron"ning yangiliklari sifatida anekdotning badiiy hikoyaga aylanishi, qahramon individualligining kuchayishi, konfliktning ichkilashuvi va novellaning didaktik "misol" xususiyatidan xalos bo'lishini ko'rsatadi [17;75–77-b.]. Keyinchalik Franko Sakketti, Masuccio Salernitano va Matteo Bandello janrning mavzu va badiiy imkoniyatlarini yanada kengaytirganlar.

Meletinskiy Sharq va G'arb novellalari o'rtasidagi tipologik farqlarni ham tahlil qiladi. Uning fikricha, Sharq novellasi, ayniqsa, Xitoy novellasi, mifologik manbalar bilan bog'liq bo'lib, fantastik elementlarni saqlab qolgan [17;35–37-b.]. Bu asarlarda tulki, pari va arvoh kabi g'ayritabiiy kuchlar qahramonga yordam beradi. G'arb novellasida esa faol qahramon, uning aqli, irodasi va tashabbusi markaziy o'rinni egallaydi [17;133–134-b.].

Romantizm davrida (G.fon Kleyst, E.T.A.Gofman, L.Tike va boshqalar) novella fantastika va ramziylik bilan boyidi [17;163–167-b.]. Xususan, Kleystning "Markiza O." (1808) novellasida tashqi voqealar va qahramonning ichki ma'naviy tanlovi uyg'unlashgan holda tasvirlanadi.

Realistik novella (P.Merime, G.Mopassan, A.P.Chexov) g'ayrioddiy voqeani kundalik hayot doirasida aks ettirdi. Mopassan oddiy hayotning o'zida "eshitilmagan voqealar" mavjudligini ko'rsatgan [17; 258-b.]. Chexov esa klassik novellaning chegaralarini kengaytirib, asosiy e'tiborni ostmatn va qahramon ruhiyatiga qaratdi.

XX asr Amerika adabiyotida psixologik novella (J.Steinbek, Sh.Anderson, E.Xeminguey, U. Folkner) inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini tasvirlashga yo'naldi. Steinbek ijtimoiy muammolarni psixologik tahlil bilan uyg'unlashtirgan bo'lsa, Anderson kichik shaharlardagi insonlarning yolg'izligi va ichki ziddiyatlarini yoritgan.

Psixologik novellaning asosiy xususiyatlari: ichki monolog va ong oqimi, ramziy obrazlar va ko'p ma'nolilik, dialoglarning semantik yuklanishi, tush va xotiralardan foydalanish, shuningdek, psixoanalitik yondashuvning ta'siridir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasida novella evolutsiyasining uch bosqichli modeli – folklor, yozma-adabiy shakllanish va klassik rivojlanish bosqichlari aniqlandi. Novellaning folklor asoslari novellistik ertak va anekdot bilan bog'liq ekani, "eshitilmagan voqea" va "novellistik burilish" esa uning asosiy poetik belgilarini tashkil etishi ko'rsatildi.

J.Bokkachchoning "Dekameron" asari novella janrining klassik modelini yaratgan bo'lsa, Sharq va G'arb novellalari qahramon faolligi hamda fantastik elementlarga munosabat jihatidan farqlanishi aniqlandi. Romantik va realistik novella janr imkoniyatlarini kengaytirgan, XX asr Amerika psixologik novellasi esa inson ruhiyati tasvirini yangi bosqichga olib chiqqan.

Kelgusida Sharq novellasi poetikasini, zamonaviy o'zbek novellachiligini jahon adabiyoti kontekstida o'rganish hamda novella va qisqa hikoya o'rtasidagi janr chegaralarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. Москва, "Художественная литература", 1975, 504 с.

(2). Goethe J.W. Conversations with Eckermann (1827). Leipzig, Brockhaus, 1836, 350 s.

(3). Tieck L. Schriften. Band XI. Berlin, Reimer, 1829, 420 s.

(4). Heyse P. Deutscher Novellenschatz. München, Oldenbourg, 1871, 650 s.

(5). Шкловский В.Б. Теория прозы. Москва, "Советский писатель", 1983, 384 с.

(6). Boccaccio G. Decameron. Firenze, 1349–1353, 800 p.

(7). Hasanzade T. Novella janrının genezisi ve təkamülü. ADU Elmi əsərlər. Bakı, 2021, № 2, s. 45–52.

(8). Melnyk O., Hnatiuk N., Shuliar V. Novella as a Genre: Historical Roots and Modern Transformations. Journal of Literary Studies. 2023, vol. 12, № 3, p. 45–61.

(9). Greimas A.J. Maupassant: La sémiotique du texte. Paris, Seuil, 1976, 290 p.

(10). Todorov T. The Poetics of Prose. Ithaca, Cornell University Press, 1977, 272 p.

(11). Himmel H. Geschichte der deutschen Novelle. Bern: Francke, 1963, 508 s.

(12). Wiese B. von. Die deutsche Novelle von Goethe bis Kafka. Düsseldorf: Bagel, 1962, 400 s.

(13). Lemmert E. Bauformen des Erzählens. Stuttgart, Metzler, 1955, 280 s.

(14). Lockerman E. Gestalt und Wandlungen der deutschen Novelle. München, Hueber, 1957, 312 s.

(15). Pongs H. Ist die Novelle heute tot? Stuttgart, Kohlhammer, 1961, 98 s.

(16). Мелетинский Е.М. Историческая поэтика новеллы. Москва, "Наука", 1990, 275 с.

(17). Эйхенбаум Б.М. Литература: Теория. Критика. Полемика. Ленинград, "Прибой", 1927, 300 с.

(18). Реформатский А.А. Опыт анализа новеллистической композиции. Москва, Никитинские субботники, 1922, 45 с

(19). Петровский М.А. Морфология новеллы. Ars poetica. Москва, 1927, с. 69–100.

(20). Виноградов В.В. О теории новеллы. Борьба за стиль. Ленинград, 1937, с. 5–62.
(21). Выготский Л.С. Психология искусства. Москва, "Искусство", 1968, 576 с.
(22). Poe E.A. The Philosophy of Composition. Philadelphia: Graham's Magazine, 1846, 30 p.
(23). James H. The Art of Fiction. Boston, Macmillan, 1884, 68 p.

Murodova Sarvigul Komil qizi (mustaqil tadqiqotchi)

INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA DINIY-ARXETIPIK OBRAZLARNING NAZARIY ASOSLARI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek adabiyotida uchraydigan diniy-arxetipik obrazlarning nazariy asoslari hamda tipologik xususiyatlari qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Maqolada diniy-arxetipik obrazlarning badiiy matndagi semantik, ramziy va estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diniy-arxetipik obrazlar jahon xalqlari badiiy tafakkurida shakllangan universal modellar bo'lib, ayni paytda har bir milliy adabiyotning tarixiy, diniy va madaniy tajribasi asosida o'ziga xos poetik xususiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar*: arxetip, diniy obraz, diniy-arxetipik obraz, qiyosiy adabiyotshunoslik, mifopoetika, Jung, Frye, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, tipologiya, ramz.*

Муродова Сарвигуль Комил кизи (Независимый исследователь)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНО-АРХЕТИПИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация*. В данной статье с позиций сравнительного литературоведения исследуются теоретические основы и типологические особенности религиозно-архетипических образов в английской и узбекской литературе. Анализируются семантические, символические и эстетические функции религиозно-архетипических образов в художественном тексте. Результаты исследования показывают, что религиозно-архетипические образы представляют собой универсальные модели, сформировавшиеся в художественном мышлении народов мира, и вместе с тем приобретают своеобразные поэтические особенности под влиянием исторического, религиозного и культурного опыта каждой национальной литературы.*

Ключевые слова*: архетип, религиозный образ, религиозно-архетипический образ, сравнительное литературоведение, мифопоэтика, Юнг, Фрай, английская литература, узбекская литература, типология, символ.*

Murodova Sarvigul Komil qizi (Independent researcher)

THEORETICAL FOUNDATIONS AND TYPOLOGICAL FEATURES OF RELIGIOUS-ARCHETYPAL IMAGES IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Annotation*. This article examines the theoretical foundations and typological features of religious-archetypal images in English and Uzbek literature from the perspective of comparative literary studies. It analyzes the semantic, symbolic, and aesthetic functions of religious-archetypal images in literary texts. The findings demonstrate that religious-archetypal images constitute universal models shaped within the artistic consciousness of the peoples of the world, while at the same time acquiring distinctive poetic characteristics under the influence of the historical, religious, and cultural experience of each national literature.*

Keywords*: archetype, religious image, religious-archetypal image, comparative literary studies, mythopoetics, Jung, Frye, English literature, Uzbek literature, typology, symbol.*

Kirish (Introduction). XX–XXI asr adabiyotshunosligida arxetip nazariyasi badiiy matnlarni tahlil qilishning samarali metodologik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. "Arxetip" tushunchasi insoniyatning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va jamoaviy ongsizligida shakllangan universal ramziy modellarni ifodalaydi. Mazkur nazariya, dastlab, psixologiya sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik, adabiyotshunoslik, mifopoetika va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida keng foydalanila boshlandi.

Diniy-arxetipik obrazlar jahon adabiyotining barcha davrlarida muhim badiiy vazifani bajargan. Payg'ambar, najotkor, donishmand, qurbon va shayton kabi obrazlar insonning ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlarini, ma'naviy izlanishlarini hamda axloqiy tanlov jarayonini ifodalovchi poetik modellar sifatida shakllangan. Ingliz va o'zbek adabiyotlari turli tarixiy va diniy-madaniy sharoitlarda rivojlangan bo'lsa-da, ularda uchraydigan diniy-arxetipik obrazlar o'zaro tipologik yaqinlikka ega. Ingliz adabiyotida mazkur obrazlar asosan xristian diniy an'analari, Bibliya motivlari va G'arb mifologik tafakkuri bilan bog'liq holda shakllangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida ular Qur'on qissalari, islomiy tafakkur va tasavvuf falsafasi bilan uyg'unlashgan holda rivojlangan. Diniy-arxetipik obrazlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi zamonaviy adabi-